# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH

**Matkarimova Go'zal Ikromovna**
*Toshkent Gumanitar fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi.* mailto:gozaloy0454@gmail.com

**Annotatsiya.** *Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari va tamoyillari muhokamasiga qaratilgan. Ta'lim sifatini oshirish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni bilan individual yondashuv,interfaol usullardan foydalanish va maktab-oila hamkorligida tashkil etish omillarni tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar.** *Boshlang'ich ta'lim, individual yondashuv,ta'lim sifatini rivojlantirish, baholash tizimi, maktab-oila hamkorligi.* *Boshlang'ich ta'limning ta'lim tizimini yanada samaraliroq qilish maqsadida,o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini yanada oshirsh maqsadida quydagi bosqichlar amalga oshiriladi.*

**1.Kadrlarni malakasini oshirish.**

Boshlang'ich ta'limda samarali ta'lim berish uchun o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik axborot texnalogiyalar 00bilan tanishtirish,ularni malakasini oshirish,ko'proq treninglar, ta'lim kurslari tashkil etish. O'qituvchilarni bilimlarni amalda oshirishga yordam beradi.

**2.shaxsiy yondashuvni joriy etish.**

Har bir o'quvchi o'ziga xos xususyatlarga ega bo'lib ,ularning ta'lim olish usullari turlicha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich ta'limda shaxsiy yondashuvni joriy etish, o'quvchilar bilan individual tarizda ta'lim sifatini oshirishga katta tasir qiladi.

**3.Maktab va ota-ona o'rtasida hamkorlik.**

Ota-ona va o'qituvchi o'tasidagi do'stona hamkorlik boshlang'ich ta'limda ta'lim sifatini oshirishga juda katta yordam beradi. Har bir ota-ona o'z farzandlarini ta'lim jarayoniga faol qatnashib,o'qituvchi bilan birgalikda har tamonlama qo'llab quvvatlashga yordam berishi kerak.

**4. O'quvchilarni baholash va natijalarni tahlil qilish.**

O'quvchilarni bilimlarini baholash va natijalarni tahlil qilish muhim omildir. O'qituvchi o'quvchilarni bilimlarini baholashda ularni doyimo kuzatib ,dars jarayonlarida faol qatnashib,har bir fanda o'zini maksimum ko'rsata olgan yutuqlarini, shu bilan birga kamchiliklarini aniqlashda samarali bo'ladi.

**5.Guruhlar bilan ishlash va fikr almashish.**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash va ular o'rtasida o'zaro fikr almashish ta'lim jarayonini sifatini oshiradi. Guruh bo'lib ishlashni samarili tarafi o'quvchilarni muommoli vaziyatni birgalikda hal qilish imkonini beradi va bir-birlari bilan muloqotga kirishadi. O'qituvchilar o'ratsidagi tajriba almashish esa pedagogik bilimlarni yanada samarali bo'lishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limda ta'lim sifatini oshirish tamoyillari ta'lim jarayonlarining samaradorligini yaxshilash , o'quvchilarni bilim olishga va jamiyatga foydali bo'lishga yo'naltirilgan asosiy prinsiplarni ifodalaydi.Quyidagi tamoyillar ta'lim sfatini birmuncha oshiradi;

Tenglik va adolat tamoyili.

Shaxsiy yondashuv tamoyili.

Insonparvarlik tamoyili.

Sifatli baholash tamoyili.

Kollaboratsiya (Hamkorlik) tamoyili.

**Xulosa:** Boshlang'ich ta'limda ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari va tamoyillari ta'lim jarayonini samarali qilishni ,o'quvchilarning hamma tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.Shaxsiy yondashuv,o'quv resurslarni yaxshilash va ota-onalar bilan hamkorlik va doyimiy kuzatuv orqali baholash jarayoni ta'lim sifatini samarali va muvaffaqiyatli qiladi.

## Foydalangan adabiyotlar.

1.Toshpolatov.M.(2019). ''Ta'lim sifatini oshirish; metadalogiya va amaliyot''. Pedagogika jurnali 15(4) 100-112.

2.Saidov.B.(2018). ''Pedagogik texnalogiyalar va ta'lim sifatini boshqarish'' . ''Pedagogik tadqiqotlar kitobi'', 2-nashr 150-158.

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). ''Boshlang'ich ta'limda yangi pedagogic yondashuvlar''. O'zbekiston ta'limi; yangi chora-tadbirlar kitobi. Toshkent; O'zbekiston nashriyoti.

4.Zayniddinova.N. (2017). ''Boshlang'ich ta'limda axborot texnalogiyalardan foydalanish''. Ta'lim texnalogiyalari jurnali 22(6). 40(47)